



UO'T 635:632.7:632.

**PAMIDOR KUYASI VA UNGA QARSHI KURASH CHORALARI**

**Qurbanov A.N**

*TerDMAU assistenti*

**Tog'aymuradov Umar**

**Toshmamatova Shabnam**

**Abdiholiqova Gulsanam**

*TerDMAU talabalari.*

**Annatatsiya:** Maqolada Surxondaryo viloyatining janubiy tumanlarida issiqhona va ochiq dala sharoitida Pamidor kuyasi (*Tuta absoluta* Meyr.) ning rivojlanishi va zararini o'rganish bo'yicha ma'lumotlar berildi. Shuningdek zararkunandaning yil davomida 12-15 avlodi rivojlanib, zarari yuqoriligi qayd etilgan.

**Kalit so'zlar:** O'simlik, pamidor, pamidor kuyasi, ochiq dala maydoni, issiqxona, avlod, zararkunanda, barg, meva, hosil, .

**Аннотация:** В статье представлены результаты исследований развития и вредоносности томатная моль (*Tuta absoluta* Meyr.) в тепличных условиях и открытый грунт южных районов Сурхандарьинской области. Также в течение года развивается 12-15 поколений вредителя, а ущерб высок.

**Ключевые слова:** Растение, томат, ржавчинный клещ, открытый грунт теплица, генерация, вредитель, лист, плод, урожай, микрон.

**Abstract:** The article provides information on the study of the development and damage of the Tomato Leafminer (*Tuta absoluta* Meyr.) under greenhouse and open field conditions in the southern districts of the Surkhandarya region. It is also noted that the pest develops 12-15 generations throughout the year, resulting in high levels of damage.

**Keywords:** Plant, tomato, tomato leafminer, greenhouse, generation, pest, blotch mines (net-like spots), leaf, fruit, yield.

## KIRISH

O'zbekistonda yetishtiriladigan sabzavot ekinlariga turli xil kemiruvchi va so'ruvchi zararkunandalar zarar yetkazadi. Ulardan qariyb 10 ga yaqin turi pomidorga jiddiy zarar yetkazishligi keltirilgan adabiyotlarda [1-24]. Kemiruvchilardan pomidor kuyasi (*Tuta absoluta* Meyr.) So'ruvchilardan o'simlik shiralari, kanalar, oqqanot, trips kabi zararkunandalar keng tarqalgan va katta miqdorda zarar yetkazadi. Respublikamizda pomidor ekinini etishtirishda zararkunandalardan himoya qilish tizimini takomillashtirish asosida ekin hosilini saqlab qolish muhimdir. Pomidor ekinini etishtirishda zararkunanda va kasalliklarning zarari ta'sirida umumiy hosilning ko'p qismi 10% dan 90% gacha yo'qotilishi mumkin.



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

Shu sababli mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, jahon bozorida o'z o'rniga ega ilmiy asoslangan texnologiya va vositalar asosida mahsulotlarni etishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Pomidorning eng xavfli zararkunandasi Pomidor kuyasi asosan pomidorning bargi, mevasi, o'suv nuqtalari, idiz bo'g'izlari va barra shoxchalari bilan oziqlanib, zarar etkazadi.

Kurash tadbirlari o'z vaqtida o'tkazilmasa, 50-60 foiz va undan ham ko'proq pomidor hosiliga zarar yetkazadi. Boshqa ituzumdosh ekinlar (kartoshka, tamaki, baqlajon, qalampir) va begona (bangidevona, fizalis, ituzum, mingdevona, belladonna va boshqa) o'tlar bilan ham oziqlanadi. Issiqxonalarda va ochiq dalalarda ekilgan pomidorni butun o'suv davrida zararlaydi. Kuya qurtlik (lichinka) bosqichida zarar etkazadi. Bu bosqich 12-15 kunda yakunlanadi.

Ozuqa yetarli bo'lsa qurtlari diapauzaga kirmaydi. Qurtlari barg va poya to'qimalari bilan oziqlanib, o'ziga xos katta, noto'g'ri shaklli dog'larni g'ovaklarni hosil qiladi. G'ovaklar orqali o'simlik to'qimalariga har xil mikroorganizmlar, ko'pincha zamburug'lar kirib, barglar va mevalar chirishi va mog'orlashiga olib keladi. Mevalar o'suv davrida yoki saqlash paytida chirib ketishiga olib keladi.



1



2



3



4

1-kapalagi, 2-tuxumi, 3-qurti, 4-g'umbagi

Pomidor kuyasining kapalagi kechalari uchadi, kunduzlari barglar orasida yashirilib oladi. Kuyaning urg'ochi zoti bir yilda jami 300 tagacha (o'rtacha 260 ta) tuxum qo'yadi. Odatda tuxum qo'ygandan keyin 4-7 kundan so'ng undan lichinkasi (qurti) chiqadi. Pomidor tuxumlarining taxminan 73% ni barglarga, 21% ni barg tomirchalari va poyalarga, 5% ni gulkosabarglarga va 1% ni mevalarga qo'yadi. Qurti endi chiqqanida oqish-sarg'ish tusli, uzunligi 0,5 mm, boshi qora, 2-4-yoshlarida nimrang yoki sarg'ish-yashil tusga kiradi, 4-15 (o'rtacha 8) kun yashaydi va bu vaqtda 4-yosh o'tadi. Etilgan lichinkaning uzunligi 8-9 mm, u ipak o'rab, g'umbaklanadi. G'umbaklanishi tuproqda yoki o'simlik qoldiqlari orasida, ba'zan zararlangan va o'ralgan barglar ustida ipaksimon pilla ichida 10 kun davomida o'tadi. Barglarda g'ovak ichida ham g'umbaklanishi mumkin.

Zararkunanda tuxum, g'umbak yoki etuk zot shaklida qishlashi mumkin. Kuya rivojlanishi uchun eng past harorat 9°S, eng qulay 20-27°S. Bir avlodning umri 30-35 kunda, qulay haroratda 24 kunda, 14°S da 76 kunda yakunlanadi. So'ngi yillarda dunyoda pomidor o'simligi zararkunandalariga qarshi kurashda bir qator ustuvor yo'nalishlar bo'yicha izlanishlar davom etmoqda, jumladan: pomidorda uchraydigan adventiv tur zararkunandalarning bioekologiyasi, rivojlanish xususiyatlari, ularning ko'payish omillariga doir tadqiqotlar bo'yicha ma'lumotlarni to'plash; ekologik xavfsiz bo'lgan mikrobiologik preparatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish va keng joriy



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

etish; turli guruhga mansub zamonaviy kimyoviy insektitsidlarning biologik samaradorligini aniqlash; sabzavot zararkunandalariga qarshi kurashda uyg'unlashgan kurash tizimini takomillashtirish hamda ishlab chiqarishga keng tadbiiq etish kabilardan iborat.



### Qarshi kurash usullari

Zararkunanda soni ko'payib ketganda, quyidagi preparatlardan foydalanish tavsiya etiladi yani kimyoviy preparatlardan:

Dva-Trin 10%, Talstar 10%: Barglar shakllanganda va mavsum davomida qo'llaniladi.

Emperia: Qurt va kuyalarga qarshi yuqori samarali preparat sifatida qayd etilgan.

Boshqa vositalar: Shuningdek, Belt, Coragen, yoki tarkibida abamektin bo'lgan dori vositalari ham keng qo'llaniladi.

Feromon tutqichlardan monitoring maqsadida qo'llanilganda, Tutasan feromon tuzoqlarida 5-6 dona kapalaklar ko'rilganda kimyoviy ishlov berilishi kerak. Kimyoviy usulni ishlatish pomidor ko'chatlari ekilishidan oldin ko'chatlar imidakloprit ta'sir etuvchi moddasi (Avalanchi, Gaucho ) bilan suvli eritma tayyorlab olib ko'chat ildizlari botirib olinadi, bu qilingan tadbir pomidor ildizidan tanasiga singdiriladi va kuyani zararidan 10-12 kun saqlaydi. Zararkunanda kapalaklarini nisbatan oddiy (arzon) preparatlar (Atilla, Sipermetrin, Karbafos va. x) yordamida qirib tashlasa bo'ladi. Ammo o'simlikda zararkunandaning qurtlari paydo bo'lsa (barg orasidagi qurti o'ldirish qiyin), eng samarali boshqa zamonaviy dorilarni ishlatish tavsiya etiladi, Takumi, Kapito, Koragen preparatlari bilan ishlov har 10-12 kunda amalga oshiriladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mamatov K.Sh., Xo'jaev Sh.T. Pomidor kuyasi havfli zararkunanda. // O'simliklar himoyasi va karantin, 2015 – № 2. B. 9. (06.00.00; № 11).
2. Mamatov K.Sh. Pomidor kuyasi. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali, 2016 – № 3. (11). B. 37. (06.00.00; № 4).
3. Bobobekov Q., Mamatov K. Pomidor kuyasiga qarshi kurash tadbirlari. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 2017 – № 4. B. 12–13. (06.00.00; № 4).
4. Abdinazarov J., "The effect of various composts on the amount of salts in the soil" Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia. PP.13-16. 11.03.2024.



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

5. S.Boltayev, O.Boynazarov, F.Imamov, J.Abdinazarov, B.Turdiyev, D.Artikova. Tuproq unumdorligiga noan'anaviy orgona-mineral kompostlarni qo'llash samradorligi. Life sciences and agriculture. 2021 № 3 (7). 37-53 p.

6.S.M.Boltayev, N.Abdurahimov, J.Abdinazarov, B.Turdiyev. Surxondaryoning taqir tuproqlari sharoitida ingichka tolali g'o'zani parvarishlash agrotexnologiyasida qo'shimcha oziqlantirishning ahamiyati. Qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda dozarb masalalar va uni rivojlantirish istiqbollari nomli konferensiya ma'teriallari to'plami. T-2020. 105-107-bet.

7. Jamshid, A., & Otabek, K. (2024). THE EFFECT OF COMPOSTS ON THE YIELD OF FINE-FIBER COTTON. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 3(27), 239-242.

8. Jamshid, A., Saydullo, B., Otabek, P., Umida, M., & Uligberdi, K. (2022). TO STUDY THE EFFECT OF ADDITIONAL NUTRIENTS IN THE CARE OF FINE-FIBER COTTON IN THE CONDITIONS OF BARREN SOILS OF SURKHANDARYA REGION. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(1), 156-158.

9. Boltaev, S. M., Abdinazarov, J., & Yusupov, A. (2022). SURXONDARYONING TAQIRSIMON TUPROQLARI SHAROITIDA INGICHKA TOLALI G 'O 'ZANI PARVARISHLASHDA QO 'SHIMCHA OZIQUALARNING TA'SIRI O 'RGANISH. World scientific research journal, 5(1), 50-54.

10. . Abdinazarov. (2024). THE EFFECT OF VARIOUS COMPOSTS ON THE AMOUNT OF SALTS IN THE SOIL. Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies, 3(3), 13-16. Retrieved from <https://econferenceseries.com/index.php/scms/article/view/4075>

11. Абдиназаров, Ж., & Болтаев, С. (2023). СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИНИНГ ТАҚИРСИМОН ТУПРОҚЛАРИ ШАРОИТИДА ИНГИЧКА ТОЛАЛИ ҒЎЗАНИ ПАРВАРИШЛАШДА ҚЎШИМЧА ОЗИҚАЛАРНИНГ ТАЪСИРИНИ ЎРГАНИШ. AGROINNOVATSIYA, 1(1), 118-121.

12. Болтаев, С., Абдиназаров, Ж., & Ибрагимов, Х. (2023). СУРХОНДАРЁНИНГ ТАҚИР ТУПРОҚЛАРИ ШАРОИТИДА ИНГИЧКА ТОЛАЛИ ҒЎЗАНИ ПАРВАРИШЛАШДА ҚЎШИМЧА ОЗИҚАЛАРНИНГ ТАЪСИРИНИ ЎРГАНИШ. Научный Фокус, 1(5), 193-196.

13. Jamshid, A., & Mahliyo, A. (2024). THE EFFECT OF APPLYING VARIOUS RATES OF COMPOST ON THE AMOUNT OF HARMFUL SALTS IN MODERATELY SALINE MEADOW-TAKIR SOILS. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 3(35), 277-281.

14. Абдиназаров, Ж., Паянов, О., & Каримова, К. (2024). ТАҚИРСИМОН ТУПРОҚЛАРИ ШАРОИТИДА ТУРЛИ КОМПОСТЛАР, ТУПРОҚНИ УМУМФИЗИКАВИЙ ХОССАЛАРИГА ТАЪСИРИ. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 3(35), 320-325.

15. РЎЗИЕВА, И., АБДИНАЗАРОВ, Ж., & РЎЗИМУРОДОВ, Д. ASSESSMENT OF THE QUALITY OF IRRIGATED GRASSLAND SOILS. UNIVERSITETI XABARLARI, 2020,[3/1] ISSN 2181-7324.



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

16. Болтаев, И. Б., Аскарова, З. Ш., & Абдиназаров, Ж. А. (2015). СОДЕРЖАНИЕ ОРГАНИЧЕСКОГО УГЛЕРОДА И ВАЛОВОГО АЗОТА В ПОЧВЕ ПРИ ВНЕСЕНИИ НАВОЗА РАЗЛИЧНОЙ СТЕПЕНИ РАЗЛОЖЕНИЯ. In Актуальные вопросы развития аграрной науки в современных экономических условиях (pp. 146-147).

17. Boltayev, S. M., Abdurahimov, N., Abdinazarov, J., & Turdiyev, B. Surxondaryoning taqir tuproqlari sharoitida ingichka tolali g'o'zani parvarishlash agrotexnologiyasida qo'shimcha oziqlantirishning ahamiyati. Qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda dozarb masalalar va uni rivojlantirish istiqbollari nomli konferensiya ma'teriallari to'plami.

18. Jamshid, A., & Otabek, X. (2024). BENTONITLI VA FOSFORITLI KOMPOSTLARNING TUPROQDAGI ZARARLI TUZLAR MIQDORIGA TA'SIRI. Научный Фокус, 2(20), 1-3.

19. Абдиназаров, Ж., & Курбанов, А. (2024, December). ИНГИЧКА ТОЛАЛИ ГЎЗАНИ ПАРВАРИШЛАШДА ҚЎШИМЧА ОЗИҚАЛАРНИНГ ТАЪСИРИНИ ЎРГАНИШ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 3, No. 29, pp. 80-83).

20. Jamshid, A., & Otabek, K. UOT 631.67: 631.4 DISTRIBUTION AND APPLICATION OF BIOGUM IN AGRICULTURE.

21. Jamshid, A., & Mahliyo, A. (2024, December). ҚО 'SHIMCHA ОЗИҚАЛАРНИНГ ИНГИЧКА ТОЛАЛИ Г 'О 'ZANI О 'SISH VA RIVOJLANISHDA TA'SIRI. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 3, No. 29, pp. 106-110).

22. Jamshid, A., & Asror, K. (2024). THE COMPOSITION OF VARIOUS COMPOSTS BASED ON BENTONITE, PHOSPHORITE, AND MANURE USED IN THE EXPERIMENT. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS, 4(40), 95-99.

23. Болтаев, С., Бойназаров, О., Имамов, Ф., Абдиназаров, Ж., Артиқова, Д., & Турдимов, Б. (2021). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ НЕТРАДИЦИОННЫХ ОРГАНО-МИНЕРАЛЬНЫХ КОМПОСТОВ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ПЛОДОРОДИЯ ПОЧВЫ. Life Sciences and Agriculture, (3-4 (7-8)), 46-61.

24. Абдиназаров, Ж., Мурадова, Ш., & Бегалиева, Н. (2025). ТУПРОҚГА ТУРЛИ КОМПОСТ ҚЎЛЛАНИЛГАНДА ТУПРОҚНИ УМУМФИЗИК ХОССАЛАРИГА ТАЪСИРИ. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 3(29), 114-120.